

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XUDAYAROV SA’NAT SAMADOVICH

$(\sigma | \mu)$ -TIPLI KVADRATIK STOXASTIK DINAMIK SISTEMALAR

01.01.01 – Matematik analiz

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2023

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
physical-mathematical sciences**

Xudayarov Sa'nat Samadovich

$(\sigma | \mu)$ -tipli kvadratik stoxastik dinamik sistemalar..... 5

Khudayarov Sanat Samadovich

Quadratic stochastic dynamical systems of the type $(\sigma | \mu)$ 23

Худаяров Саънат Самадович

Квадратичные стохастические динамические системы типа $(\sigma | \mu)$ 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works

Список опубликованных работ..... 47

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XUDAYAROV SA’NAT SAMADOVICH

$(\sigma | \mu)$ -TIPLI KVADRATIK STOXASTIK DINAMIK SISTEMALAR

01.01.01 – Matematik analiz

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2023

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/FM531 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.qarshidu.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rozikov Utkir Abdulloyevich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Jamilov Uygun Umurovich
fizika-matematika fanlari doktori

Usmonov Javoxir Baxodir o'g'li
fizika-matematika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "____" _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180103, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 225-34-13; faks: (+998 75) 221-00-56, e-mail: qarshidu@umail.uz). Qarshi davlat universiteti 2-binosi, 202-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 225-34-13; faks: (+998 75) 221-00-56, e-mail: qarshidu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil "____" _____ dagi ____ raqamli reestr bayonnomasi).

B.A.Shoimqulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., professor

Sh.D.Nodirov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.f.d. (PhD)

A.A.Imomov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi
f.-m.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqiyosida olib borilayotgan ko‘plab amaliy ishlar aksariyat hollarda stoxastik va nostoxastik kubik matritsalar orqali aniqlangan evalyutsion operatorlar dinamikasini aniqlashda samarali qo‘llanilmoqda. Kubik matritsalarining vaqtga bog‘liq oilasi biologiya va fizika masalalarini matematik modelini ifodalashda foydalaniladi. Shu sababli kubik matritsalar yordamida qurilgan operatorlar va simpleksni saqlovchi stoxastik va nostoxastik kubik matritsalar yordamida qurilgan noxiziqli operatorlar dinamikasi muhim masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Dunyoda xaotik dinamik sistema hosil qiluvchi stoxastik va nostoxastik kvadratik operatorlar hamda kvadratik nostoxastik operatorlar hosil qilgan dinamik sistemalarni aniqlashga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu jumladan, biror fiksirlangan ko‘paytma va stoxastiklikka nisbatan Kolmogorov-Chapman tenglamasini qanoatlantiruvchi matritsalar oilasi tadqiq qilish, kubik matritsalar hosil qilgan kvadratik stoxastik va nostoxastik jarayonlarning dinamikasining tuzilishini taqiq qilish, stoxastik va nostoxastik kvadratik operator xaotik dinamik sistema hosil qilishi uchun uning parametrlari qanday shartlarni qanoatlantirishini topish masalalarini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratildi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tadbiqiga ega bo‘lgan statistik fizika, biologiya va geologiyaning dolzarb yo‘nalishlariga e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, genitika, populyatsion biologiyada uchraydigan asosiy obyektlardan bo‘lgan simpleksni saqlovchi stoxastik va nostoxastik kubik matritsalar yordamida qurilgan noxiziqli operatorlar dinamikasi topishga oid salmoqli natijalarga erishildi. “Funksional analiz, matematik fizika va statistik fizika” fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi¹. Qaror ijrosini ta‘minlashda ilmiy natijalardan ilm-fanning turdosh sohalaridan foydalanish maqsadida noxiziqli operatorning dinamik sistemalari nazariyasini tadqiq etishni rivojlantirish muhim ahamiyat ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta‘limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi 2017-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 292-sonli qarori.

hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Matematika, mexanika va informatika" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Fizika yoki biologiyadagi matematik modellarni o'rganish uzluksiz yoki diskret vaqtli kvadratik tasodifiy jarayonlarni o'rganishga keltiriladi. Bunday holda Kolmogorov-Chapman tenglamasini qanoatlantiradigan kubik matritsalar oilasini qurish muhim masala hisoblanadi.

Maksimov tomonidan odatdagi matritsani ko'paytirishni umumlashiruvchi kub matritsalarini assotsiativ ko'paytirish kiritildi. U kubik stoxastik matritsalarining analoglarini kiritdi va ularning ehtimollik talqinlarini berdi. Stoxastik matritsalarining kubik statsionarligi tavsiflandi va kubik stoxastik matritsalarining statsionarga yaqinlashishi haqidagi tasdiqni isbotladi. Markov jarayoni tushunchasini umumlashiruvchi Markov o'zaro ta'sir jarayoni tushunchasini kiritdi va bunday jarayonning ergodikligi tushunchasi tabiiy ravishda kub matritsalarini assotsiativ ko'paytirish bilan bog'liqligini ko'rsatdi.

J.M.Kasas, M.Ladra va U.A.Rozikovlar tomonidan kubik stoxastik matritsalarining Markov jarayoni kiritildi, bu jarayon kvadratik stoxastik jarayon (KSJ) deb ham ataladi. KSJ uzluksiz vaqtli dinamik sistemalarning xususiy holi bo'lib, Kolmogorov-Chapman tenglamasining (KChT) analogini qanoatlantiradigan stoxastik kubik matritsalar yordamida hosil qilinadi. Kubik matritsalar o'rtasida ko'paytirishning bir nechta turlari mavjud bo'lganligi sababli, dastavval kubik matritsalar uchun ko'paytirish amalini kiritish lozim, so'ngra belgilangan ko'paytirish amaliga nisbatan KChTni qanoatlantiruvchi matritsalar oilasini ajratish lozim. J.M.Kasas, M.Ladra, U.A.Rozikovlar maqolalarida KSJ ni qurish uchun maxsus tanlangan ikkita turdagi stoxastik kubik matritsalar qaralib, bunday matritsalar uchun ikki turdagi ko'paytma amali (Maksimov ko'paytmasi sifatida ma'lum bo'lgan) qaralgan. KSJlarning keng sinfi va vaqtga bog'liq bo'lgan bunday jarayonlarning ba'zi holatlari berilgan. Bundan tashqari, egizaklar tug'ilishi mumkin bo'lgan populyatsiyaning vaqtinchalik xatti-harakatlarini (dinamikasini) tavsiflovchi KSJni biologiyaga qo'llanilishiga doir misollar keltirilgan.

U.A.Rozikov va Sh.N.Murodov ishlarida ikki o'lchovli evolyutsion algebralarni zanjirlariga 25 ta turdagi misollar qurilgan. Qurilgan 25 ta zanjirlarning barchasini barik xususiyati, absolyut nilpotent elementlar to'plami va idempotent elementlar to'plamining vaqt funksiyasi sifatida dinamikasi o'rganilgan.

R.N.G'anixo'jaevning ishlarida Volterra tipidagi kvadratik stoxastik operatorlar nazariyasi o'rganilgan. Keyinchalik chiziqli va nochiziqli stoxastik operatorlar U.A.Rozikov, X.Akin, U.U.Jamilov, A.Zada, O.N.Hakimov, F.M.Muhamedov, A.Yu.Hamrayev, F.A.Shahidi, N.N.G'anixo'jaev, J.P.Tian, S.K.Shoyimardonov, M.V.Velasco, R.Varrolarning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

U.A.Rozikov tomonidan 2020-yilda yozilgan “Populatsiya dinamikasi: algebraik va ehtimolli yondashuv” nomli kitobining ehtimolli yondoshuv qismida uzluksiz dinamik sistemalarni hosil qiluvchi va Kolmogorov-Chapman tenglamasining analogini qanoatlantiruvchi kubik stoxastik (belgilangan ma’noda) matritsalarining Markov jarayonlari (KSMMJ) keltirilgan. Ikkita maxsus tanlangan ikki tipdagi stoxastik kubik matritsalar qaralib, bunday matritsalarda Maksimovning ikki turdagi ko‘paytmasi uchun KSMMJi bayon qilingan. Bunday jarayonlarning vaqtga bog‘liq xatti-harakatlari egizak tug‘ilish ehtimoli bo‘lgan populyatsiyaga qo‘llanilishi taqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 2017-2022-yillarga mo‘ljallangan M.01.2017-raqamli “Chiziqli operatorlarning spektral nazariyasi” ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi turli stoxastik kubik matritsalar uchun aniqlangan ko‘paytmalar yordamida Kolmogorov-Chapman tenglamasi o‘rinli bo‘lish shartlarini topish. Kvadratik operator simpleksni saqlashi uchun kvadrat operatorning koeffitsiyentlariga zarur va etarli shartni topishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kvadratik operator simpleksni saqlashi uchun uning koeffitsiyentlariga zaruriy va yetarli shartlarni topish;

kvadratik nostoxastik operatorlar hosil qilgan dinamik sistemalarni o‘rganish; xaotik dinamik sistema hosil qiluvchi nostoxastik kvadratik operatorlarni aniqlash;

berilgan ko‘paytma va stoxastiklikka nisbatan kvadratik stoxastik jarayonni hosil qiladigan kubik matrisalar yordamida qurilgan dinamik sistemalarni o‘rganish;

kiritilgan ko‘paytmalarga nisbatan Kolmogorov-Chapman tenglamasini qanoatlantiradigan kubik matritsalar oilasini qurish. Hosil qilingan dinamik sistemalarning vaqt bo‘yicha evolyutsiyasini o‘rganish.

Tadqiqotning obyekt Maksimov ko‘paytmasi yordamida Kolmogorov-Chapman tenglamasini qanoatlantiruvchi kubik matritsalar yordamida aniqlangan kvadratik stoxastik operatorlar dinamikasi olingan.

Tadqiqotning predmetini haqiqiy o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi, dinamik sistemalar, tasodifiy jarayonlar nazariyasi, kubik matritsalar nazariyasi.

Tadqiqot usullari. Bitiruv ishida matematik tahlil, funksional tahlil, stoxastik jarayonlar va dinamik sistemalar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kvadratik operator simpleksni saqlashi, ya’ni simpleksni o‘zini-o‘ziga akslantirishi uchun uning koeffitsiyentlariga zarur va yetarli shartlari topilgan;

ixtiyoriy bir o‘lchovli kvadratik nostoxastik operator dinamikasi to‘liq o‘rganilgan hamda operator parametrlarining ba’zi qiymatlarida xaotik dinamik sistema hosil qilishi shartlari logistik akslantirish xossalardan foydalangan holda aniqlangan;

ikki o'lovli kvadratik nostoxastik operatorlar orasida xaotik dinamik sistema hosil qiluvchi va xaotik dinamik sistema hosil qilmaydigan sinflari qurilgan bo'lib, ushbu operatorlarning dinamikasi to'la tasniflangan;

kubik matritsalar uchun bir nechta turdagi maxsus ko'paytma kiritilgan, hamda bu ko'paytmalarga nisbatan kvadratik stoxastik jarayonlarni hosil qiluvchi matritsalar oilasi Kolmogorov-Chapman tenglamasini qanoatlantirishi isbotlangan. Ushbu kvadratik stoxastik jarayonlarning vaqt o'zgargandagi limit nuqtalari topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Matematik biologiyada populatsiya jarayonlarining matematik modellarini kubik matritsalar yordamida tuzilgan noxiziqli stoxastik va nostoxastik kvadratik operatorlar bilan ifodalash taklif etilib, ushbu operatorlar yordamida qurilgan dinamik sistemalarda traektoriyaning limit nuqtalari to'plamini aniqlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. matematik va funksional analiz, dinamik sistemalar nazariyasi usullaridan foydalanilgani hamda olingan natijalar matematik jihatdan qat'iy isbotlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati dinamik sistemalardagi traektoriyalarning limit nuqtalari to'plami tavsifi diskret vaqtli chiziqli bo'lmagan dinamik sistemalar nazariyasida qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati chiziqli bo'lmagan operator hosil qilgan dinamik sistemalarda traektoriyaning limit nuqtalari to'plamini aniqlash orqali matematik biologiyadagi populyatsiya jarayonlariga qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Dissertatsiya tadqiqoti jarayonida olingan ilmiy natijalar quyidagi yo'nalishlarda amaliyotga joriy qilingan:

nostoxastik kvadratik operatorlar hosil qilgan dinamik sistemalar va ularning limit nuqtalari haqidagi natijalardan Malayziya Xalqaro islom universitetining FRGS21-230-0839-raqamli "Dynamics of finite dimensional orthogonality preserving cubic stochastic operators" nomli loyihasida foydalanilgan (Malayziya Xalqaro islom universitetining 2023 yil 15-yanvardagi ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarni qo'llash biologik sistemalar, matematik biologiya va boshqa tabiiy fanlarda uchraydigan evolyutsion operatorlarni tasniflash imkonini bergan;

berilgan ko'paytmaga nisbatan Markov jarayonlarini tashkil qiluvchi nostoxastik kubik matritsalar hosil qilgan kvadratik operatorlar oilasining dinamikasiga oid natijalardan Birlashgan Arab Amirliklari universitetining G00003447-raqamli "Quantum genetic algebras and their applications" loyihasida foydalanilgan (Birlashgan Arab Amirliklari Universitetining 2023-yil 06-yanvardagi ma'lumotnomasi). Ilmiy natijani qo'llash standart simpleksda aniqlangan bir nechta kvadratik stoxastik operatorlar hosil qilgan dinamik sistemalarni tekshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 94 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiyada tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi yoritilgan, mavzu bo'yicha xorijiy va mahalliy ilmiy-tadqiqot ishlari harhi, muammoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan maqolalar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Dastlabki tushunchalar. Kvadratik operatorning dinamik sistemalari**" deb nomlanuvchi birinchi bobida dissertatsiya mavzusini to'la yoritish uchun zarur bo'lgan asosiy ta'riflar va muhim tushunchalar keltirilgan. Shuningdek ikki o'lchovli nostoxastik operatorning qo'zg'almas nuqtalari, invariant to'plamlari, traektoriyasi haqidagi natijalar bayon qilingan.

Aytmalik $I = \{1, 2, \dots, m\}$ bo'lsin. $x = (x_1, \dots, x_m)$ - I to'plamning ehtimollik taqsimoti bo'lsin, ya'ni x

$$S^{m-1} = \left\{ x \in \mathbb{R}^m : x_i \geq 0, \sum_{i=1}^m x_i = 1 \right\}. \quad (1)$$

simpleks elementi bo'lsin.

Kvadratik stoxastik operator deb S^{m-1} simpleksni o'zini-o'ziga akslantiruvchi quyidagi akslantirishga aytiladi:

$$V : x'_k = \sum_{i,j=1}^m P_{ij,k} x_i x_j, \quad k = 1, \dots, m \quad (2)$$

bu yerda $P_{ij,k}$ koeffitsiyentlar

$$P_{ij,k} \geq 0, P_{ij,k} = P_{ji,k}, \sum_{k=1}^m P_{ij,k} = 1, i, j, k = 1, \dots, m \quad (3)$$

shartlarni qanoatlantiradi.

Har bir (3) shart bilan aniqlangan kvadratik stoxastik operator V biror $\mathbf{P} = (P_{ij,k})_{i,j,k=1}^m$ kubik matritsa yordamida bir qiymatli aniqlanadi.

(2) ko‘rinishida aniqlangan kvadratik stoxastik operator ta’sirida $x^{(0)} \in S^{m-1}$ boshlang‘ich nuqtaning traektoriyasi (orbitasi) $\{x^{(n)}\}$ quyidagicha aniqlanadi:

$$x^{(n+1)} = V(x^{(n)}), \quad n = 0, 1, 2, \dots$$

Umuman olganda \mathbf{P} kubik matritsaga mos V , $V: x \in \mathbb{R}^m \rightarrow x' = V(x) \in \mathbb{R}^m$ kvadratik operator (2) tenglik bilan aniqlanadi. Umumiylikka ziyon yetkazmagan holda $P_{ij,k} = P_{ji,k}$ deb olamiz. Haqiqatdan ham, agar bu tenglik bajarilmasa, u holda $\bar{P}_{ij,k} = \frac{1}{2}(P_{ij,k} + P_{ji,k})$ deb olamiz.

\mathcal{C} orqali haqiqiy sonlar maydoni ustida aniqlangan m^3 -o‘lchamli kubik matritsalar to‘plamini belgilaymiz. E_{ijk} , $i, j, k \in I$ matritsa \mathcal{C} to‘plamdagi birlik matritsa bo‘lsin, ya’ni E_{ijk} matritsa m^3 -o‘lchamli matritsa bo‘lib, (i, j, k) -o‘rinda turgan element 1 ga, qolgan elementlar 0 ga teng.

Birlik matritsalar o‘rtasida ko‘paytirish amalini quyidagicha kiritamiz:

$$E_{ijk} *_a E_{lnr} = \delta_{kl} E_{ia(j,n)r} \quad (4)$$

bu yerda $a: I \times I \rightarrow I$, $(j, n) \mapsto a(j, n) \in I$ ixtiyoriy assotsiativ binar amal, δ_{kl} esa Kroneker simvoli.

O_m orqali I dagi barcha binar amallar to‘plamini belgilaymiz.

Ko‘paytirishning umumiy formulasi (4) ni bichiziqilik bo‘yicha davom ettirish orqali topiladi, ya’ni ikkita $A = (a_{ijk}), B = (b_{ijk}) \in \mathcal{C}$ kubik matritsalar uchun $A *_a B = (c_{ijk})$ ko‘paytma

$$c_{ijr} = \sum_{l, n: a(l, n) = j} \sum_k a_{ilk} b_{knr}$$

tenglik bilan aniqlanadi. Bundan ko‘rish mumkinki $\{l, n: a(l, n) = j\} = \emptyset$ shartni qanoatlantiruvchi j uchun $c_{ijr} = 0$ bo‘ladi.

Agar har qanday $u, v \in I$ uchun $a(x, u) = v$ ($a(u, x) = v$) tenglama yagona yechimga ega bo‘lsa, a amal I da o‘ng (mos ravishda chap) yagona yechiluvchan deyiladi.

1-lemma. Agar a amal I da o‘ng yoki chap yagona yechiluvchan bo‘lsa, u holda

$$\sum_{d \in I} \sum_{j, m: a(j, m) = d} \gamma_{j, m} = \sum_{j \in I} \sum_{m \in I} \gamma_{j, m}$$

munosabat o‘rinli bo‘ladi.

Stoxastiklik. Bir nechta turdagi kubik stoxastik matritsalar ta’rif berib o‘tamiz. Aytaylik $\mathbf{P} = (P_{ij,k})_{i, j, k=1}^m$ kubik matritsa berilgan bo‘lsin.

• agar $P_{ij,k} \geq 0$, $i, j, k = \overline{1, m}$ va har bir k uchun $\sum_{i, j=1}^m P_{ij,k} = 1$ bo‘lsa, \mathbf{P} kubik

matritsa (1, 2) - stoxastik deyiladi;

• agar $P_{ij,k} \geq 0, i, j, k = \overline{1, m}$ va har bir j uchun $\sum_{i,k=1}^m P_{ij,k} = 1$ bo'lsa, \mathbf{P} kubik matritsa (1,3)- *stoxastik* deyiladi;

• agar $P_{ij,k} \geq 0, i, j, k = \overline{1, m}$ va har bir i uchun $\sum_{j,k=1}^m P_{ij,k} = 1$ bo'lsa, \mathbf{P} kubik matritsa (2,3)- *stoxastik* deyiladi.

• agar $P_{ij,k} \geq 0, i, j, k = \overline{1, m}$ va har bir i va j uchun $\sum_{k=1}^m P_{ijk} = 1$ bo'lsa, \mathbf{P} kubik matritsa 3- *stoxastik* deyiladi.

Xuddi shu kabi birinchi va ikkinchi indekslar bo'yicha ham mos ta'riflarni berish mumkin. Maksimovning ishlarida juft stoxastiklik ta'rifi ham keltirilgan:

agar (2,3)-stoxastik kubik matritsa uchun barcha j, k da $\sum_{i=1}^m P_{ij,k} = \frac{1}{m}$ bo'lsa, \mathbf{P} *juft stoxastik* matritsa deyiladi.

S orqali barcha mumkin bo'lgan stoxastikliklar to'plamini va M orqali esa kubik matritsalar o'rtasidagi barcha ko'paytmalar to'plamini belgilaymiz.

Aytaylik, $s \geq 0, t \geq 0$ parametrlar vaqtni ifodalasin. s va t parametrlarga bog'liq kubik matritsani $M^{[s,t]} = \left(P_{ij,k}^{[s,t]} \right)_{i,j,k=1}^m$ ko'rinishida aniqlaymiz.

1-ta'rif. Agar har bir s va t vaqt uchun $M^{[s,t]}$ kubik matritsa $\sigma \in S$ stoxastik bo'lib, $\mu \in \mathbf{M}$ ko'paytmaga nisbatan

$$M^{[s,t]} = M^{[s,\tau]} *_{\mu} M^{[\tau,t]}, \text{ har bir } 0 \leq s < \tau < t \quad (5)$$

Kolmogorov-Chapman tenglamasini qanoatlantirsa, $\{M^{[s,t]} : s, t \in R_+\}$ kubik matritsalar oilasiga $(\sigma | \mu)$ -tipli Markov jarayoni (yoki kvadratik stoxastik jarayon) deyiladi.

2-ta'rif. S^{m-1} simpleksni saqlovchi (2) kvadratik stoxastik operatorning hech bo'lmaganda bitta $P_{ij,k}, i \neq j$ koeffitsiyenti manfiy bo'lsa, bu operatorga nostoxastik kvadratik operator deyiladi.

Ikki o'lchamli S^2 simpleksda aniqlangan nostoxastik kvadratik operatorga misol qaraymiz:

$$V_0 : \begin{cases} x' = 1/2 \cdot (z - y)^2 + 3/2 \cdot x(y + z) \\ y' = 1/2 \cdot (x - z)^2 + 3/2 \cdot y(x + z) \\ z' = 1/2 \cdot (y - x)^2 + 3/2 \cdot z(x + y) \end{cases} \quad (6)$$

$$a_1 = (0, 1/2, 1/2), a_2 = (1/2, 0, 1/2), a_3 = (1/2, 1/2, 0), a_4 = (1/3, 1/3, 1/3)$$

nuqtalar V_0 operatorning qo'zg'almas nuqtalari bo'ladi.

Bunda a_1, a_2 va a_3 nuqtalar egar, a_4 esa tortuvchi qo'zg'almas nuqta bo'ladi.

Quyidagicha to‘plamlarni aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} M_1 &= \{(x, y, z) \in S^2 : x > y > z > 1/6\}, M_2 = \{(x, y, z) \in S^2 : x > z > y > 1/6\}, \\ M_3 &= \{(x, y, z) \in S^2 : y > x > z > 1/6\}, M_4 = \{(x, y, z) \in S^2 : y > z > x > 1/6\}, \\ M_5 &= \{(x, y, z) \in S^2 : z > x > y > 1/6\}, M_6 = \{(x, y, z) \in S^2 : z > y > x > 1/6\}, \\ l_1 &:= \{(x, y, z) \in S^2 : x = y, x + y + z = 1\}, l_2 := \{(x, y, z) \in S^2 : x = z, x + y + z = 1\}, \\ l_3 &:= \{(x, y, z) \in S^2 : y = z, x + y + z = 1\}. \end{aligned}$$

1-teorema. $M_i, i = 1, 2, 3, 4, 5, 6, l_j, j = 1, 2, 3$ to‘plamlar V_0 operatorga nisbatan invariant to‘plamlar bo‘ladi.

$v^{(0)} \in S^2$ boshlang‘ich nuqtaning V_0 operatorga nisbatan $\{v^{(n)}\}_{n=0}^\infty$ traektoriyani $v^{(n+1)} = V_0(v^{(n)})$, $n = 0, 1, 2, \dots$ kabi aniqlaymiz.

2-teorema. Har bir $v^{(0)} \in S^2 \setminus \{a_i, e_i : i = 1, 2, 3\}$ boshlang‘ich nuqta uchun quyidagi munosabat o‘rinli

$$\lim_{n \rightarrow \infty} V_0^{(n)}(v^{(0)}) = \lim_{n \rightarrow \infty} v^{(n)} = \lim_{n \rightarrow \infty} (x^{(n)}, y^{(n)}, z^{(n)}) = (1/3, 1/3, 1/3).$$

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi “**Nostoxastik matritsalarining kvadratik operatorlarida bo‘lingan xaos**” deb nomlanadi. Bu bobda kvadratik operator koeffitsiyentlari uchun operator simpleksni saqlashini ta‘minlovchi zaruriy va yeratli shartlar topilgan.

Ikkinchi bobning asosiy natijasi quyidagi teoremadan iborat.

3-teorema. V ((2) tenglik bilan aniqlangan) kvadratik operator S^{m-1} simpleksni saqlashi uchun quyidagi shartlarning bajarilishi yetarli

$$\text{i) } \sum_{k=1}^m P_{ij,k} = 1, \quad i, j = 1, \dots, m,$$

$$\text{ii) } 0 \leq P_{ii,k} \leq 1, \quad i, k = 1, \dots, m,$$

$$\text{iii) } -\frac{1}{m-1} \sqrt{P_{ii,k} P_{jj,k}} \leq P_{ij,k} \leq 1 + \sqrt{(1 - P_{ii,k})(1 - P_{jj,k})}$$

va (i), (ii) hamda iii’) $-\sqrt{P_{ii,k} P_{jj,k}} \leq P_{ij,k} \leq 1 + \sqrt{(1 - P_{ii,k})(1 - P_{jj,k})}$ shartlarning bajarilishi zarur.

1-eslatma. 1. A.T.Sarimsoqovning ishlarida $m = 2$ bo‘lgan holda kvadratik operator simpleksni saqlashi uchun (i), (ii) va (iii’) shartlarning bajarilishi zarur va yetarli ekanligi isbotlangan.

2. $m \geq 3$ bo‘lgan holda (i), (ii) va (iii’) shartlar kvadratik operator simpleksni saqlashi uchun yetarli emas. Quyidagicha misolni qaraymiz (misolda qaraladigan operator (i), (ii) va (iii’) shartlarni qanoatlantiradi):

$$P_{ii,1} = 1, \quad P_{ii,k} = 0, \quad \forall i = 1, \dots, m; \quad \forall k = 2, \dots, m;$$

$$P_{ij,1} = -\sqrt{P_{ii,1} P_{jj,1}} = -1, \quad \forall i \neq j; \quad P_{ij,k} \in [0, 2], \quad \forall i \neq j, k \geq 2 \text{ bunda } \sum_{k=2}^m P_{ij,k} = 2.$$

V operator uchun $x'_1 = (2x_1 - 1)^2 - 4 \sum_{2 \leq i < j \leq m} x_i x_j$ tenglikni hosil qilamiz.

Quyidagi $x_1 = \frac{1}{2}$ va $x_j > 0, j \geq 2$ bunda $\sum_{j=2}^m x_j = \frac{1}{2}$ shartlarni qanoatlantiruvchi

$x \in S^{m-1}$ nuqtani olamiz. U holda $x'_1 < 0$ bo'ladi, ya'ni $x' = V(x) \notin S^{m-1}$.

S^1 da kvadratik nostoxastik operatorni umumiy holda qaraymiz:

$$\begin{aligned} x' &= ax^2 + 2bxy + cy^2 \\ y' &= (1-a)x^2 + 2(1-b)xy + (1-c)y^2, \end{aligned} \quad (7)$$

bu yerda $a, c \in [0, 1], b \in [-\sqrt{ac}, 1 + \sqrt{(1-a)(1-c)}]$.

$x + y = 1$ tenglikni inobatga olib, (7) operatorni

$$x' = ax^2 + 2bx(1-x) + c(1-x)^2 = (a - 2b + c)x^2 + 2(b - c)x + c$$

kabi yozib olamiz va quyidagi funksiyani qaraymiz:

$$f(x) = (a - 2b + c)x^2 + 2(b - c)x + c. \quad (8)$$

Biz traektoriyasi xaotik bo'ladigan kvadratik stoxastik operatorlarni bilmaymiz. Ammo quyidagicha muhim holni ko'rib o'tamiz.

$a = c = 1, b \in [-1, 0)$ bo'lgan holda (7) operator

$$\begin{aligned} x' &= x^2 + 2bxy + y^2 \\ y' &= 2(1-b)xy. \end{aligned} \quad (9)$$

ko'rinishga keladi.

$P_{12,1} = b < 0$ bo'lganligi uchun bu operator nostoxastik bo'ladi. Ixtiyoriy $(1 - y_0, y_0) \in S^1$ boshlang'ich nuqta uchun uning traektoriyasi $(1 - y_n, y_n)$ kabi ko'rinishda bo'ladi, bunda $y_n = \mu y_{n-1}(1 - y_{n-1}), \mu = 2(1 - b), n = 1, 2, \dots, m$.

$f(x) = \mu(1 - x)$ logistik akslantirishning ma'lum xossalardan² foydalanib, $-1 \leq b < -0.784975$ bo'lganda (9) operator bir o'lchamli simpleksda xaotik dinamik sistema tashkil qilishini ko'rsatish mumkin.

Yuqorida biz bir o'lchamli kvadratik nostoxastik bo'lgan operatorlarni ko'rib chiqdik va bir o'lchamli kvadratik nostoxastik operatorlarni to'liq o'rganish mumkinligini ko'rdik, hatto ular orasida parametrlarining ba'zi qiymatlarida xaotik dinamik sistema tashkil qiladiganlari ham bor ekan. Ammo ikki o'lchamli kvadratik nostoxastik operatorlarni umumiy holda o'rganish qiyin, shuning uchun biz quyida ikkita aniq qiziqarli misolni qarab o'tamiz.

1. S^2 simpleksda quyidagicha kvadratik nostoxastik operatorni qaraymiz

$$\begin{aligned} x' &= x^2 + y^2 + z^2 - axy - axz + 2yz \\ y' &= (2 + a)xy \\ z' &= (2 + a)xz, \end{aligned} \quad (10)$$

bu yerda $a \in [0, 2]$. Ta'kidlash joizki $P_{12,1} = P_{13,1} = -a/2$.

² [https://en.wikipedia.org/wiki/Logistic map](https://en.wikipedia.org/wiki/Logistic_map)

$M_0 = \{(x, y, z) \in S^2 : y = 0\}$, $M_1 = \{(x, y, z) \in S^2 : z = 0\}$,
 $M_\omega = \{(x, y, z) \in S^2 : y = \omega z\}$, $\omega \in [0, +\infty)$ to‘plamlar (10) operatorga nisbatan invariant to‘plamlar bo‘ladi.

Bundan tashqari, $S^2 = M_0 \cup M_1 \cup \left(\bigcup_{\omega \in (0, +\infty)} M_\omega \right)$ tenglik o‘rinli bo‘ladi.

2-eslatma. (10) operator a parametr uchun $1.56995 < a \leq 2$ tengsizlik o‘rinli bo‘lganida xaotik bo‘ladi, ammo u simpleksda Devaniy ma’nosida xaos emas. Chunki, u topologik tranzitiv emas. Bu operator bo‘lingan xaos bo‘ladi, ya’ni simpleks sanoqsizta invariant qism to‘plamlarga ajralgan bo‘lib, (10) operator har bir invariant to‘plamda chegaralangan va Devaniy ma’nosida xaos.

2. S^2 simpleksda koeffitsiyentlari

$$P_{ii,1} = 1, P_{ii,k} = 0, \forall i = 1, 2, 3; \forall k = 2, 3; P_{ij,1} = -\frac{1}{2} \sqrt{P_{ii,1} P_{jj,1}} = -\frac{1}{2}, \forall i \neq j$$

$$P_{ij,k} \in [0, \frac{3}{2}], \forall i \neq j, k = 2, 3 \quad \text{bunda} \quad P_{ij,2} + P_{ij,3} = \frac{3}{2}$$

shartlar bilan aniqlangan kvadratik nostoxastik operatorni qaraymiz.

Ba’zi parametrlarni nolga tenglashtirib, quyidagicha V operatorni hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} x' &= x^2 + y^2 + z^2 - xy - xz - yz \\ y' &= 3xy + ayz \\ z' &= 3xz + (3 - a)yz, \end{aligned} \quad (11)$$

bu yerda $a \in (0, 3)$.

3-eslatma. (11) operator uchun $a = 0$ va $a = 3$ hollarni ham qarash mumkin. Bu hollar $a \in (0, 3)$ bo‘lgan holga nisbatan ancha sodda. Misol uchun agar $a = 0$ bo‘lsa, u holda $z' = 3z(x + y) = 3z(1 - z)$ bo‘ladi, ya’ni z o‘zgaruvchi qolgan o‘zgaruvchilarga bog‘liq bo‘lmagan dinamikaga ega bo‘ladi. Shu sababli biz $a \neq 0$, $a \neq 3$ bo‘lgan holni qaraymiz.

(11) operatorning qo‘zg‘almas nuqtalari quyidagicha bo‘ladi:

$$s_1 = (1, 0, 0), s_2 = \left(\frac{1}{3}, 0, \frac{2}{3} \right), s_3 = \left(\frac{1}{3}, \frac{2}{3}, 0 \right), s_4 = \left(\frac{a^2 - 3a + 3}{a^2 - 3a + 9}, \frac{2a}{a^2 - 3a + 9}, \frac{2(3 - a)}{a^2 - 3a + 9} \right). \quad (12)$$

$T = \{(y, z) \in [0, 1]^2 : y + z \leq 1\}$ bo‘lsin.

1-tasdiq. s_1 qo‘zg‘almas nuqta itaruvchi. s_2 va s_3 qo‘zg‘almas nuqtalar giperbolik emas (ammo yarim-itaruvchi³). s_4 qo‘zg‘almas nuqtalar giperbolik emas (ammo yarim-tortuvchi⁴).

³ Ikkinchi xos qiymatning moduli birdan katta ekanligini anglatadi.

⁴ Ikkinchi xos qiymatning moduli birdan kichik ekanligini anglatadi.

Quyidagicha to‘plamlarni kiritamiz:

$$M_1 = \{(y, z) \in T : y = 0\}, \quad M_2 = \{(y, z) \in T : z = 0\}, \quad M_3 = \{(y, z) \in T : z = \frac{3-a}{a} y\},$$

$$M_4 = \{(y, z) \in T : z < \frac{3-a}{a} y\}, \quad M_5 = \{(y, z) \in T : z > \frac{3-a}{a} y\},$$

$$\hat{M}_i = \{(x, y, z) \in S^2 : (y, z) \in M_i\}, \quad i = 1, 2, 3, 4, 5.$$

U holda $S^2 = \bigcup_{i=1}^5 \hat{M}_i$ bo‘ladi.

4-teorema. Agar biror $i = 1, 2, 3, 4, 5$ uchun $(x^{(0)}, y^{(0)}, z^{(0)}) \in \hat{M}_i$ bo‘lsin, u holda (11) operator uchun quyidagi munosabat o‘rinli bo‘ladi

$$\lim_{n \rightarrow \infty} V^n(x^{(0)}, y^{(0)}, z^{(0)}) = \begin{cases} s_1, & \text{agar } x^{(0)} = 1 \text{ bo'lsa} \\ s_2, & \text{agar } i = 1, z^{(0)} > 0 \text{ bo'lsa} \\ s_3, & \text{agar } i = 2, y^{(0)} > 0 \text{ bo'lsa} \\ s_4, & \text{agar } i = 3, y^{(0)} > 0 \text{ bo'lsa} \\ \in \hat{M}_3, & \text{agar } i = 4, 5 \text{ bo'lsa} \end{cases}$$

bu yerda $s_i, i = 1, 2, 3, 4$ nuqtalar (12) tengliklar bilan aniqlangan.

Sonli usullardan foydalangan holda quyidagicha gipotezani qurishimiz mumkin

Gipoteza. Agar $(x^{(0)}, y^{(0)}, z^{(0)}) \in \hat{M}_4 \cup \hat{M}_5$ bo‘lsa, u holda (11) tenglik bilan aniqlangan operator uchun $\lim_{n \rightarrow \infty} V^n(x^{(0)}, y^{(0)}, z^{(0)}) = s_4$ munosabat o‘rinli bo‘ladi.

Shunday qilib, (11) operator xaotik dinamik sistema hosil qilmaydi.

Dissertatsiyaning “ $(\sigma | \mu)$ -**tipli kvadratik stoxastik jarayonlar**” deb nomlangan uchinchi bobida $(\sigma | \mu)$ -tipli kvadratik stoxastik jarayonlar qurilgan, ya’ni (5) tenglamani qanoatlantiruvchi kubik matritsalar oilasi topilgan. Bundan tashqari $t - s \rightarrow +\infty$ da bu kvadratik stoxastik jarayonlarning dinamikasi o‘rganilgan.

$Q = (q_{ij})_{i,j=1}^m$ kvadratik matritsa berilgan bo‘lib, uning elementlari uchun

$$q_{ij} \geq 0, \quad \forall i, j = 1, \dots, m; \quad \sum_{j=1}^m q_{ij} = 1, \quad \forall i = 1, \dots, m.$$

munosabat o‘rinli bo‘lsa, Q ga o‘ng stoxastik matritsa deyiladi.

Xuddi shu kabi elementlari manfiymas bo‘lgan matritsaning har bir ustun bo‘yicha elementlari yig‘indisi 1 ga teng bo‘lsa, bu matritsaga *chap stoxastik matritsa* deyiladi.

I da o‘ng (chap) yagona yechiluvchan bo‘lgan a Maksimov ko‘paytmasini qaraymiz. U holda (5) tenglama

$$P_{ijr}^{[s,t]} = \sum_{l,n:a(l,n)=j} \sum_{k=1}^m P_{ilk}^{[s,\tau]} P_{knr}^{[\tau,t]}, \quad \forall i, j, r \in I \quad (13)$$

ko‘rinishiga keladi.

Dastlab kubik matritsalar uchun ma’lum stoxastik tushunchasini kiritib, bunday matritsalar sinfida (13) tenglamani yechimini topamiz.

Quyidagicha belgilash olamiz

$$q_{ir}^{[s,t]} = \sum_{j=1}^m P_{ijr}^{[s,t]}, \quad Q^{[s,t]} = \left(q_{ir}^{[s,t]} \right)_{i,r=1}^m. \quad (14)$$

3-lemma. $M^{[s,t]} = \left(P_{ijk}^{[s,t]} \right)_{i,j,k=1}^m$ (bunda $P_{ijk}^{[s,t]} \geq 0$) kubik matritsa

• (1,2)-stoxastik (mos ravishda (2,3)-stoxastik) bo‘lishi uchun unga mos $Q^{[s,t]}$ kvadratik matritsa chap (mos ravishda o‘ng) stoxastik bo‘lishi zarur va yetarli;

• (1,3)-stoxastik bo‘lishi uchun unga mos $Q^{[s,t]}$ kvadratik matritsa elementlari

$\sum_{i,r=1}^m q_{ir}^{[s,t]} \equiv m$ shartni qanoatlantirishi zarur va yetarli;

• 1-stoxastik (mos ravishda 3-stoxastik) uchun unga mos $Q^{[s,t]}$ kvadratik matritsa elementlari $\sum_{i=1}^m q_{ir}^{[s,t]} \equiv m$ (mos ravishda $\sum_{r=1}^m q_{ir}^{[s,t]} \equiv m$) shartni qanoatlantirishi zarur va yetarli;

• 2-stoxastik bo‘lishi uchun $q_{ir}^{[s,t]} \equiv 1$ tenglik bajarilishi zarur va yetarli.

2-tasdiq. Agar $m > 1$ va a amal I da o‘ng yoki chap yagona yechiluvchan bo‘lsa, u holda (5) tenglama i -stoxastik (har bir $i = 1, 2, 3$ uchun) kubik matritsalar sinfida yechimga ega emas.

1-shart. Aniqlik uchun $I = \{0, 1, 2, \dots, m-1\}$ deb, bu to‘plamda a amalni $a(i, j) = (i + j) \pmod{m}$ kabi aniqlaymiz. Bu holda a ning yagona yechiluvchan ekanligini ko‘rish mumkin.

Bu holda $M^{[s,t]}$ matritsani $M^{[s,t]} = \left(P_{ijk}^{[s,t]} \right)_{i,j,k=0}^{m-1}$ kabi aniqlash mumkin. U holda (13) tenglamani

$$P_{ijr}^{[s,t]} = \sum_{k=0}^{m-1} \left(\sum_{l=0}^j P_{ilk}^{[s,\tau]} P_{k(j-l)r}^{[\tau,t]} + \sum_{l=1}^{m-j-1} P_{i(j+l)k}^{[s,\tau]} P_{k(m-l)r}^{[\tau,t]} \right), \quad \forall i, j, r \in I. \quad (15)$$

kabi yozish mumkin.

Bu m^3 ta noma’lumli, $P_{ijr}^{[s,t]}$ ikki o‘zgaruvchili funksional tenglamalar sistemasi bo‘lib, $P_{ijr}^{[s,t]} = 1/m^2$, $\forall i, j, r \in I$, $0 \leq s < t$ trivial yechimga ega. (15) tenglamalar sistemasini to‘la tahlil qilsih birmuncha qiyin bo‘lib, biz faqat $m = 2$ holni qarash bilan cheklanamiz.

(1,3)-stoxastik yechimlari. (13|a)-tipli kvadratik stoxastik jarayonni quramiz. Bunda 13 deganda (1,3)-stoxastikni, a deganda (4) ko‘paytmani tushunamiz.

$M^{[s,t]}$ kubik matritsani

$$M^{[s,t]} = \begin{pmatrix} P_{000}^{[s,t]} & P_{001}^{[s,t]} & P_{100}^{[s,t]} & P_{101}^{[s,t]} \\ P_{010}^{[s,t]} & P_{011}^{[s,t]} & P_{110}^{[s,t]} & P_{111}^{[s,t]} \end{pmatrix} \quad (16)$$

kabi qulay shaklda yozib olamiz.

Quyidagi matritsalarini qaraymiz:

$$M_1^{[s,t]} = \begin{pmatrix} 1/4 & 1/4 & 1/4 & 1/4 \\ 1/4 & 1/4 & 1/4 & 1/4 \end{pmatrix}; \quad (17)$$

$$M_2^{[s,t]} = \begin{pmatrix} f(s,t) & f(s,t) & f(s,t) & 1-3f(s,t) \\ 1/2-f(s,t) & 1/2-f(s,t) & f(s,t) & 3f(s,t)-1/2 \end{pmatrix} \quad (18)$$

